

SUN'IY INTELLEKT VA TA'LIM

Murodjon Qodirov Shuxrat o'g'li

JIDU akademik litseyi

2-bosqich o'quvchisi

Annotatsiya:

Zamon kundan kunga rivojlanib borayotgan bir davrda, texnologiyalar ham rivojlanmoqda. Bugungi kun kelib, zamonaviy gadjetlar hayotimizning ko'plab sohalariga kirib keldi: san'at, tibbiyot, telekommunikatsiya, ta'lim, transport, aloqa, sotuv va hokazo. Ushbu maqolada texnologiyalarning ta'lim tizimi bilan o'zaro aloqalari, yoshlarga zamonaviy uslublarda bilim berish metodikalari, zamon bilan hamnafas bo'lgan holda yoshlarning dunyo qarashlarini kengaytirish uslublari haqida fikr yuritilgan.

Аннотация:

В эпоху, когда время развивается день ото дня, технологии также развиваются. На сегодняшний день современные гаджеты проникли во многие сферы нашей жизни: искусство, медицина, Телекоммуникации, образование, транспорт, связь, продажи и др. В данной статье мы рассмотрим взаимодействие технологий с системой образования, методики обучения молодежи современными методами, способы расширения кругозора молодежи в ногу со временем.

Abstract:

In a time when time is developing day by day, technology is also developing. To date, modern gadgets have entered many areas of our lives: art, medicine, telecommunications, education, transport, communication, sales, etc. In this article, we will consider the interaction of technologies with the educational system, methodologies for imparting knowledge to young people in modern styles, and methods for expanding the worldviews of young people in keeping with the times.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim, yoshlar, Chat GPT, texnologiyalar, sayt, taqdimot, dunyo qarash, bilim olish.



Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, молодежь, Чат GPT, технологии, сайт, презентация, мировоззрение, обучение

Keywords: artificial intelligence, education, young people, Chat GPT, technologies, site, presentation, world view, learning

Kirish

XXI asr texnika va texnologiyalar asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yillar o‘tishi bilan texnikalar ham rivojlanib keldi. Keling, misol qilib soatning rivojlanish xronologiyasini olsak: dastlab qum soatlar, katta hajmdagi soatlar, cho‘ntak soatlari, qo‘l soatlari, endi esa smart soatlar. Zamon bir joyda qotib qolmaganidek, texnika ham bir joyda to‘xtab turmaydi. Kun, soat, daqiqa sayin rivojlanib boradi. Sun‘iy intellekt (SI) ham shular jumlasidandir. Bugungi kunga sun‘iy intellektdan foydalanuvchilar soni keskin ortmoqda. Sun‘iy intellekt deganda soda chatbotlardan, to murakkab kombinatsiyali vazifalarni bajaruvchi robotlargacha tushunish mumkun.

Sun‘iy intellekt (SI; inglizcha: artificial intelligence, AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi. Bugungi kunda keng qo‘llanib kelinayotgan sun‘iy intellekt texnologiyalariga aqlli veb-qidiruv tizimlari (masalan, Google Search), tavsiya tizimlari (Youtube, Amazon, Netflix), tabiiy tilni tushunish (Siri, Google Assistant, Alisa), o‘zini-o‘zi boshqaradigan avtomobillar (masalan, Waymo) va boshqalarni misol qilish mumkun [1].

Raqamli dunyo kengayib borayotgan bir zamonda, sun‘iy intellekt ham kengaymoqda, rivojlanmoqda va uning ko‘lami ta‘lim sohasiga ham yetib kelgan. XXI asrda dunyoga kelgan yoshlar hozirgi hayotini internet, telefon, kompyutersiz tasavvur qila olmasligi oddiy holatga aylanib bo‘ldi. Ta‘lim bu butun tarix davomida shaxsiy qadr-qimmat va imkoniyatlar manbayi bo‘lib, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Uni 2030-yilda yana shunday kuchga ega bo‘lishini istasak, ta‘limning raqamli transformatsiyasini amalga oshirish kerak [2]. Mana shu vaziyatda savol tug‘iladi: yoshlar ko‘nikkan texnologiyalarni odatiy sinf xonalaridagi darslar bilan bevosita bog‘lashning imkoni bormi?

Bugungi kunda sun‘iy intellektdan nafaqat dizayner yoki kompyuter sohasi vakillari, balki o‘nlab soha vakillari foydalanishi mumkun. Xususan, hozirda yoshlar darslarni



xoh onlayn, xoh oflayn o'zlashtirishlari uchun: ChatGPT, Midjourney, Quillbot, Dall-e, Khan academy, Wiley, Copilot education, Curopod kabi yuzlab saytlar va sun'iy intellektlar mavjud. Ushbu saytlarni barcha yo'nalishlardagi darsliklar uchun foydalanish mumkin.

ChatGPT, Bing, YandexGPT:Turli sohalarga oid savollarga javob bera oluvchi, muammolarga yechimlar taklif qiluvchi, murakkab masalalarni ishlay oluvchi, ochiq bazalardan foydalanadigan, tekin sun'iy intellekt. Sodda interfeysga ega. Ushbu sun'iy intellektlardan o'qituvchilar,o'quvchilar va ularning ota-onalari foydalana oladi;

O'qituvchilar darslarni qiziqarliroq va interaktivroq tashkillashtirish uchun mavzulashtirilgan savol-javoblar, turli xil o'yinlar tayyorlashi mumkin. Undan tashqari o'qituvchilar ushbu sun'iy intellekt yordamida mavzularga oid chuqurlashtirilgan ma'lumotlarni va faktlarni, taqdimotlarni ham tayyorlay biladi;

O'quvchilar ushbu sun'iy intellektdan darslarni batafsilroq va sifatliroq o'zlashtirish, bilimlarni to'liqlashtirish, uyga vazifalardagi murakkab savol va masalalarni yechish, mavzularga oid boshqa manbaalarni o'rganishda foydalanishlari mumkin. Undan tashqari Chat GPTdan ma'lumotlarni analiz qilish, tartiblash, sinxronlashda ham keng foydalanish imkoni bor.

Ota-onalar ushbu chatbotlardan ishdagi, oiladagi, shaxsiy muammolarga yechim topish, ota-onaning farzand bilan to'g'ri muloqot qilishida foydalanishlari mumkin. Masalan, farzandining qiziqishlaridan kelib chiqib, to'garak va qo'shimcha mashg'ulotlarga berish, kelajagi masalasida suhbat qurish, do'stlari va sinfdoshlari orasida bullingga uchramayotganligiga amin bo'lish va hokazo.



Chingizxonning sun'iy intellekt orqali yaratilgan ko'rinishi

Midjourney, Davinci, Dall-E: yoshlarning tarix, tasviriy san'at, geometriya, muhandislik, chizmachilik kabi fanlarga qiziqishini oshiruvchi sun'iy intellekt.



Ushbu sun'iy intellektlardan tasviriy san'at, arxitektura, chizmachilik kabi fanlardagi yoshlarning nazariy, amaliy va madaniy dunyo qarashini kengaytirishga yordam bersa, tarix fanidan tarixiy shaxslarning, tarixiy joylarning, muhim voqealarning rasmini yoki videolarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarga ana shu davrdagi hodisalarni tasavvur qilishlariga yaqindan yordam beradi. Ushbu sun'iy intellektlardan foydalanish orqali o'quvchilarda darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, o'rganayotgan fanlaridan amaliy qarashlari vujudga keladi, davrlar osha insoniyat va uning bilim darajasi qanday o'zgargani, evolyutsiya haqida boshlang'ich ong osti fikrlari vujudga keladi.

Imlo.uz, Izoh.uz, Sinonim.uz: ushbu saytlar o'zbek dasturchilari va o'zbek olimlari tomonidan tuzib chiqilgan bo'lib, sodda va qulay interfeysga ega. Ushbu saytlar nafaqat o'quvchi yoki o'qituvchilar, balki rasmiy va norasmiy hujjatlar bilan ishlovchi, o'zbek tilini hurmat qiluvchi har qanday inson uchun zarur deb, hisoblayman. Ushbu saytlarning nomidan ham bilish mumkinki, bu saytlar o'zbek tilidagi so'zlarning ma'nolari, sinonimlari hamda so'zlarning to'g'ri yozilishi uchun xizmat qiladi. Mazkur saytlar o'qituvchilar, talabalar, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan bo'lib, o'zbek tili sir-asrorlarini o'rganishda ahamiyati juda katta.

Cutpro, Remini: Google, Yandex kabi qidiruv tizimlaridan olingan rasmlar sifatsiz holda bo'lib, ma'lumotlarni o'qish, yozuvchi yoki asar qahramonlarining yuzlarini ko'rishga qiynalish vaziyatlari o'quvchilar, o'qituvchilar orasida ko'p kuzatiladi. Bu muammo bir qancha ochiq darslarda ko'ngilni xijil qilishga yoki ustoz bergan vazifani izlayotganda tushuna olmaslikka sababchi bo'lgan. Cutpro, photo enhancer kabi sun'iy intellektlar shu kabi xira rasmlarni tiniqlashtirib, sifatliroq qilib beradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar taqdim etilayotgan ma'lumotlarni osonroq tushunishiga, qiyinchiliklarsiz o'zlashtirishlariga sababchi bo'ladi.



Sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan taqdimot



Odatiy tayyorlangan taqdimot

Gamma, PowerPoint, Prezi, SlideShare: yuqoridagi misoldan ham ko'rish mumkinki, nafaqat o'quvchilar, balki tajribali o'qituvchilar ham ba'zan "zerikarli" taqdimot ishlanmalarini tayyorlashi mumkun. Eski qoliplar-u, zerikarli rasmlar o'tmishda qoldi. Sababi Gamma, PowerPoint, Prezi kabi sun'iy intellektlar qiziqarli, zamonaviy, ma'lumotlarga boy, sodda, ajoyib rasm va belgilar (icons) bilan boyitilgan taqdimot ishlanmalarini tayyorlash imkoni mavjud. Bu sun'iy intellektlar darslarni nafaqat zerikarli bo'lishidan qutqaradi, balki yoshlarning ta'lim olayotgan faniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, diqqatini jamlaydi, rasmlar va videolar orqali o'rgayotgan bilimlarini sodda va tushunarli holda, oson o'zlashtiradi.

Matnli, videoli yoki rasimli taqdimotlar yoshlarning o'zlashtirish salohiyatini oshirishiga doir bir qancha izlanishlar olib borilgan. Xususan, o'quvchilar tomonidan tanlangan videodarslar o'zlashtirish koeffitsiyentini bir necha bor oshirganligiga oid izlanishlardan birida aytiladiki: "Ikkinchi siklda o'tkazilgan test natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 4% talaba 2 ball oldi, 17% talaba 3 ball, 25% talaba 4 ball va 45% talaba 5 ball oldi. Kuzatuv jarayoniga kelsak, kuzatuv ma'lumotlari tahlili barcha kuzatuv elementlarining o'rtacha qiymatlari 4.25 va 4.5 orasida ekanligini ko'rsatdi" [3].

Khan academy – 18 yildan buyon 10 ga yaqin fanlarga oid tekin darslarni va testlarni tayyorlab keluvchi platforma. Shu kunga qadar 10.000 ga yaqin videodarslar 36 ta tilga to'liq yoki qisman tarjima qilingan va joylangan. Ushbu platformadan matematika, algebra, geometriya, trigonometriya, fizika, biologiya, kimyo, astronomiya, informatika, tarix kabi aniq va tabiiy fanlarni o'rganish mumkun. Bu



platforma yordamida o'quvchilar mustaqil izlanishlari va o'rganishlari (self study), axborotlarni jamlashlari, o'zlashtirishda qiynalayotgan fanlariga oid videodarslarni ko'rib, tengdoshlariga yetib olishlari mumkin. Shuningdek, ushbu ochiq platformadan o'qituvchilar ham, ota-onalar ham keng foydalana oladi. O'qituvchilar ushbu saytdan yosh avlodga qiziqarliroq va samaraliroq dars o'tish maqsadida yoki o'quvchilarning bilimlaridagi bo'shliqlarni aniqlashda, bartaraf etishda foydalana olishadi. Ushbu platforma ota-onalarga farzandlarining uyga vazifalarni ishlashga yordam berishida yoki ularning bilim darajalarini tekshirib ko'rishida juda foydalidir.

Quizlet – "Takrorlash bilimlarning onasidir". Rostan ham, o'rgangan bilimlarimizni takrorlash, qaytarish orqali mustahkamlash mumkinligini hammamiz bilamiz. O'zlashtirgan bilimlarni takrorlash uchun esa, testlar, savol-javob varaqalari yoki sinfdoshimiz bo'lishi shart emas. Shunchaki quizlet platformasi bilan takrorlamoqchi bo'lgan mavzularga oid savol-javoblarni interaktiv kartochkalar yordamida mustahkamlashimiz mumkin. Ushbu platforma yordamida o'quvchilar o'rgangan bilimlarini savol-javob qilish yordamida muhtakmlab, kemtik joylarini to'ldira oladilar.

Coursera – Stanford, Michigan, Pensilvaniya, Kolumbiya kabi dunyoga mashhur 108 ta universitet bilan hamkorlik qiluvchi, 20 dan ortiq tillarda, 10 dan ortiq yo'nalishlarda darslar joylangan, ajoyib platforma. Ushbu saytdan nafaqat bilim olib, sertifikat olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar, balki bilimlarini mustahkamlamoqchi bo'lgan yoki jahonga mashhur universitetlar tomonidan tavsiya qilinadigan dars metodikalarini o'rganmoqchi bo'lgan ustozlar ham foydalanishi mumkin. Ushbu platformada ma'lumotlar muhandisligi, biznes, kompyuter muhandisligi, til o'rganish, tibbiyot, informatika, shaxsiy rivojlanish, matematika, fizika, gumanitar fanlar, san'at kabi yo'nalishlardagi 7000 dan ortiq kurslar jamlangan. Ushbu saytda kurslarni o'rganib, yangi bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, chet el oliygohlari qanday usulda dars o'tishini, qanday usulda o'rganuvchiga yetkazayotganligini ham bilib olish imkoni bor.

Quizizz.com, kahoot.com, Jeopardylabs.com: ushbu platformalar turli xil fanlarga oid mavzulashtirilgan interaktiv test savollari, o'yinlar, musobaqalarni bir joyga jamlagan. O'qituvchilar va o'quvchilar oldindan viktorinalarni ishlashlari yoki o'zlarining yangi o'yinlarini tuzishlari mumkun. Ushbu saytlar yoshlar orasida sog'lom raqobatni shakllantirishda, mavzularga qiziqtirishda, liderlik qobiliyatlarini shakllantirishda, jamoaviy ishlash ko'nikmalarini oshirishda yordam beradi.



Tadqiqotlar ko'rsatadiki, darsning ilk 10 daqiqasidan so'ng, o'quvchilarning e'tibori chalg'iy boshlaydi va bu vaziyatda o'qituvchiga ushbu saytlar yaqindan yordam bera oladi.

Maktab, litsey, kollejlarda yangi avlod innovatsion texnologiyalaridan foydalanish turli xil elektron jurnallar va kitoblardan dars tayyorlash, ma'lumotlarni mustahkamlash va tahlil qilish, qo'shimcha yangi axborotlarni topishda, dars ishlanmalari tayyorlashda, online darslar tashkil etishda, o'quvchilarning fikr-mulohazalarini, takliflarini o'rganishda, o'quvchilarning bilimlarini tekshiruvchi test sinovlari va imtihonlar tuzishda, chet el metodikalarini tatbiq etishda, elektron fanlararo, ilmiy ma'lumotlar bazalarini yaratishda yaqindan yordam beradi.

Xulosa

Xullas, hozirgacha ishlatilib kelinayotgan bir qancha metodikalar va dars berish usullari birmuncha eskirgan. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar, platformalar va sun'iy ondan foydalanish orqali yoshlarning dunyoqarashini, bilim olishga bo'lgan qiziqishini va shu bilan birgalikda sog'lom raqobatni yanada rivojlantirish imkoni mavjud. Sog'lom raqobat muhitida yetishgan kadr esa o'z sohasidagi muammolarni yecha oladi va uning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Zamonaviy texnologiyalar yoshlarning o'zlari qiziqqan sohada rivojlanishiga, aloqaviy kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yishlariga, kasblarini o'zlashtirishda yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalardan boxabar, undan oqilona foydalana bilgan har bir kishi o'z sohasining yetuk mutaxassisi, kuchli bilimdoni bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wikipedia https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Sun%CA%BCiy_intellekt&variant=uz
2. "The Use of Artificial Intelligence Art Generator "Midjourney" in Artistic and Advertising Creativity" by Dena Magdy Hanna, published in The Next Web: https://www.researchgate.net/publication/371377778_The_Use_of_Artificial_Intelligence_Art_Generator_Midjourney_in_Artistic_and_Advertising_Creativity
3. Kaplan, Andreas; Haenlein, Michael (1 January 2019). "Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial Intelligence". Business Horizons. 62 (1): 15–25. doi:10.1016/j.bushor. – 2018.08.004



4. Fayziyeva M.R. Ta'lim transformatsiyasida raqamli texnologiyalarning ahamiyati // published in INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337

5. Userbayeva F. Ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini oshirish // published in "RAQAMLI IQTISODIYOT" ilmiy-elektron jurnali,5-son.

